

MAHMUD KOSHG'ARIYNING "DEVONI LUG'OTIT TURK" ASARIDA KELTIRILGAN OZIYQ-OVQAT NOMLARI

Almardanova Iroda Toshmamatovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
iroda_almardanova@tues.uz
ORCID: 0009-0005-5311-6095

Xusanova Mahliyo Abdunazarovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili 3-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785489>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" filolog tadqiqotlar va boshqa soha yo'nalishlarining tadqiqot obyekti, xususan tilshunoslikning yangi yo'nalishlar uchun manbasi sifatida asoslanadi. Hamda "Devoni lug'otit turk" asarida uchraydigan oziyq-ovqat nomlari izohi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Devon, lug'at, turkiy, jag', ash, at, so't, to'z, divan.

Аннотация. Данная статья посвящена произведению Махмуда Кашгари «Девони ЛУГОТИТ ТУРК» (Словарь турецкого языка Девони) как объекту исследования для филологических и других областей, в частности, как источнику новых направлений в лингвистике. Также рассматривается объяснение названий продуктов питания, встречающихся в произведении «Девони ЛУГОТИТ ТУРК».

Ключевые слова: Девон, словарь, турецкий, челюсть, пепел, в, пыль, пыль, диван.

Annotation. This article is devoted to Mahmud Kashgari's "Devoni LUGOTIT TURK" (Devoni Dictionary of Turkish) as an object of research for philological studies and other fields, in particular as a source for new directions in linguistics. Also, the explanation of food names found in the work "Devoni LUGOTIT TURK" is studied.

Key words: Devon, dictionary, Turkish, jaw, ash, at, sot, dust, couch.

Kirish. "Devonu lug'otit turk" asari turkiy tilda yozilgan noyob asar bo'lib, o'zbek tilshunosligi uchun noyob va qadimiy manba hisoblanadi. O'z zamonasida asar arablarga qolaversa, arab tili orqali sharq va g'arb xalqlariga qadimgi turklarning tili, madaniyati, tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi qomusiy asardir. Asar arabcha "Divanu lug'at-turki" deb atalgan. Ushbu atamada "divan" devon so'zini, "lug'at" so'zlar degan ma'noni, "turki" esa turk degan ma'noni anglatgan. Hamda o'sha zamondagi turkiy tilni anglatgan. Bu asarning so'zma so'z tarjimasi "Turkiy so'zlar tarjimasi" degan ma'noni anglatgan. "Devonu lug'otit turk" asarining bittagina qo'lyozmasi ma'lum bo'lib, u ham keyingi davrlarga tegishli. Uni Muhammad bin Abu Bakr Damashqiy ismli kotib Shomda hijriy 664-yil, shavvol oyining 27-kuni (milodiy 1266-yil avgustning birinchisida) o'zining ya'ni, kotibning yoshiga qaraganda, Mahmud Koshg'ariy o'z qo'li bilan yozgan qo'lyozmadan ko'chirib tugallangan. Ushbu nodir qo'lyozma hozir Istanbuldagi Millat kutubxonasida saqlanmoqda. Qo'lyozma 320 varaq (639 sahifadan) iborat. Har betida 17

qatordan qilib matn bitilgan[1;]. Xati chiroyli. Deyarli butun boshli matn qorada, oradagi bob va fasllarning sarlavhasi boshida turkiy misollar shuningdek, sarlavha sifatida berilgan harflar qirmizi rangda. Ba'zi sarlavhalar to'q qora rangda bitilgan. Matn bo'ylab turkiy misolar qora rangda yozilib, ustidan qirmizi chiziq tortib qo'yilgan. Misol-to'rtliklarning qatorlar doirachalar bilan ajratilgan. Varaqlarning tugashiga poygir belgilari qo'yilmagan.

Adabiyotlar tahlili. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari bo'yicha tadqiqotlar ko'lami keng bo'lsada, dastavval sharqshunos olimlar tomonidan tartib berilgan bu manba bir qator sohalarning tadqiqot manbai bo'lib xizmat qilgan. Tilshunoslik yo'nalishida ham keng ko'lamli izlanishlar debochasi sifatida tadqiq etilgan. Bizning tadqiqotimizga aloqador izlanishlarni e'tirof etamiz: Planeta, yulduz, va fasl nomlari Devonu lug'otit-turk Indeks-lug'at (1967), Sodiqov Q. Mahmud Koshg'ariy turkiy dialektlar haqida(1989), Meyliyeva X. "Devonu lug'otit-turk" dagi ayrim tibbiy terminlar izohi, (2003), Menliyev B., Bobojonov Sh. "Devonu lug'otit-turk" va o'zbek milliy izohli lug'atini yaratish muammolari (2002), Rasulova G. "Devonu lug'otit-turk" da sochiluvchi narsalar solinadigan ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi leksemalar (2010) Rasulova G. Mahmud Koshg'ariy devonidagi mehnat asbob-uskunalariga oid uy-ro'zg'or buyumlari (2010), Sattorova N. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridagi kasallikka oid terminlar (2010) kabi salmoqli izlanishlar fikrimiz dalilidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari tilshunoslik manbasi sifatida leksik qatlamdagi nomlarning izohi bugungi leksik qatlamda etnografizm sifatida tahlili qilindi.

Tahlil va natijalar. Asar milodiy 1074-yilda yozib tugallangan. "Devonu lug'otit turk" asarining ahamiyati birinchi turkiy tilshunoslik asari va o'zbek, qirg'iz, turkman va boshqa tillarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun muhim qadimiy manbadir. "Devonu lug'otit turk" asarining muhim jihatlaridan biri asarda yer kurrasining xaritasi ham kiritilgan bo'lib, undagi tog'lar cho'llar, suvlik va pasttekisliklar, shaharlar qirmizi, sariq, to'q ko'k ranglarda ajratilib ko'rsatilgan. Manbalarga ko'ra, Janubi-g'arbiy Osiyoning bir qator shaharlarida bo'lgan Mahmud Koshg'ariy Bog'dodda bir necha yil yashagan va bu yerda arab tili va adabiyotining eng nozik xususiyatlarini o'rgangan. Ammo turkiy tillar xususiyatlarini o'rganish maqsadida olim bir necha yillar mobaynida "Rumdan- Mochingacha" - O'rtayer va Qora dengiz bo'ylaridan to Xitoygacha sayohat qilgan, turli qabilalar yashaydigan yerlar, shaharlar va qishloqlarni kezzagan. Uzoq muddatli safarlari natijasida to'plagan tarixiy, lingvistik, geografik va etnografik ma'lumotlarni tizimlashtirgan, Mahmud Koshg'ariy 1072-1074-yillar davomida Xitoy va Mo'g'ulistondan tortib to Vizantiyagacha bo'lgan hududda yashovchi 30 ga yaqin turkiy qabilalarning XI asrdagi hayoti, ya'ni tili, urf-odatlarini, turmush tarzini o'rganadi va ushbu qimmatli "Devoni lug'otit turk" asarini yaratadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, olim bu asarni bir necha marta tahrir qilib, 1077-yilda xalifa Muqtadirga taqdim etgan. Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarni ikki guruhga ajratgan: biri, barcha turkiy qavmlar uchun

tushunarli bo‘lgan, rasmiy ishlarda va yozma adabiyotda qo‘llanuvchi, o‘tmish yozma til an‘analarini saqlab kelayotgan yozma- adabiy til, buni muallif “turkcha”, “xoqoniya tili” deb ataydi: “Bularning ichida eng ochiq va ravon til xoqoniya o‘lkasida yashovchilar tilidir” deb ataydi. Lug‘atga asos qilib yozma-adabiy tilda qo‘llanuvchi so‘zlar olingan. Ikkinchisi turli turkiy shevalar bo‘lib, dialektal leksika ana shu lug‘at qatlami tevaragida, unga chog‘ishtirib boriladi. Shunga ko‘ra, asar eski turkiy yozma adabiy tilnigina emas, eski turkiy dialektlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda harflar imlosiga ham katta e‘tibor qaratadi va asarda keltirilgan “J” harfi “Y” harfini ifodalab kelganligini lug‘atda uchragan leksemalar orqali ko‘rishimiz mumkin.

“Devonu lug‘otit turk” asarida uchragan oziq-ovqat nomlari:

Jilinchg‘a ash- yog‘i, ta‘mi bo‘lmagan osh

Javg‘an ash- tovg‘an osh

Ugra- ugra oshi. Bu tutmochdan mayinroq, mazaliroq bo‘lgan osh

Mun- sho‘rva

Uspiri- issiq kulda pishirilib yog‘ga to‘g‘rab, ustiga shakar sepib yeyiladigan non

Ebmak- non

Jug‘a- qat-qat non

Chuqmin- lochiraga o‘xshash bir non. Uni qozonda suv bug‘i bilan pishiriladi. Bu oson hazm bo‘ladigan non

Kuzman- qo‘rda pishirilgan non

Buskach- yuqa non

Jimirtg‘a- tuxum

Jash at- yangi go‘sht

At- go‘sht

Kuvshag et- yumshoq go‘sht

Qartal et- to‘g‘ralgan go‘sht

Et pishib uldi- go‘sht xil- xil pishdi ma‘nosida

Sag‘ syw- shirin suv

So‘t- sut

To‘z- tuz

Jag‘-yog‘

Jarmash- yorma

Ajran- ayron

Ilig- ilik

Uskich- mayiz

So‘g‘ut- ichak ichiga guruch, go‘sht va xushbo‘y dorivorlar solib, pishirib yeyiladigan hasip

So‘g‘ut- suzma

Tutg‘uch- dastlabki ovqat

Tuturqan- guruch

Tutmach- turklarning mashhur ovqati

Tahlil va natijalar. Tutmoch- bu ovqat haqida yozuvchi shunday deydi: bu ovqatning kelib chiqishi Zulqarnaynga nisbat beriladi. Shundayki, Zulqarnayn zulmatdan chiqqach, oziqlari ozayib qolgan kishilar ochlikdan qo‘rqib unga “bizni och qo‘yma, och tutma” mazmunida bizni tutma ach-bizni tutma och, qo‘yib yubor, biz yurtimizga qaytaylik” deganlar. Iskandar bilimdonlar bilan kengashgan va ular shu ovqatni tayyorlaganlar. Bu ovqat tanaga quvvat berib, yuzni qizartirar va tezda hazm bo‘lmas edi. Bu ovqat yeyilgach, suvi ham ichilar edi. Turklar bu ovqatni ko‘rgach, “tutmach” deb ataydilar. Aslida esa, “tutma ach” ya’ni “och tutma” degan ma’noni bildirgan. Ikki alif tushurilib, tutmach bo‘lgan. Buning ma’nosi “o‘zingni och tutma, shu ovqatni tayyorlab ye” deganidir.

Non ma’nosidagi ko‘mach so‘zidagi kabi. Bu so‘z kul va boshqalarga ko‘mdi deganda qo‘llanuvchi ko‘mdi fe’lidan yasalgan [5]

Tadqiqotchi, B.Raxmonov “Devoni lug‘otit-turk” asaridagi ba’zi so‘zlarning Surxondaryo etnografizmlari bilan taqqoslanishi jadvalida ham oziq-ovqat nomlarining etnografik leksikada qo‘llanilib kelinayotganini jadval asosida ko‘rsatib o‘tadi. “*Jovg‘an* Go‘shtsiz, yog‘i kam ovqat جوغن *Javg‘an* (*yovg‘on*, 44- b.) Taom turi

Ko‘moch (*ko‘mma*)_Cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non كوماچ *Ko‘mach* (341- b.) O‘choqda cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non

Qovurmach Qovurilgan bug‘doy taomi قوغورماچ *Qog‘urmach* (454-b.) Qovurilgan bug‘doy

Tolqan Bug‘doy qovurmasidan tayyorlangan taom (qovurmochning uni) قان تل *Talqan* (412-b.)_Biror donli ekinning maydalangan shakli”[6]

A.T.Kaydarovning fikrlari ham bizning qarashlarimizni tasdiqlaydi. “Etnografizmlar – xalqning maishiy xususiyatlari va lisoniy o‘ziga xos xususiyatlarini, ma’lum hududda qo‘llaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari, xalq xo‘jaligi, an‘ana va urf-odatlarini, marosim va e’tiqodlari, uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat, oilani aks ettiruvchi maxsus nomlardir” [2]

Bu asar ikki muqaddima va lug‘at qismlaridan iborat. Muqaddimada kitobning yaratilish sababi, o‘sha zamonda turklar ishlatgan yozuv, ot yasalishi, otlar va fe’llardagi orttirmalar, lug‘atning tuzilish prinsiplari, turkiy qavmlarning bayoni, joylashuv o‘rni, turkiy tilning xususiyatlari, lahjalardagi farqlar to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Lug‘at qismi sakkiz bo‘limdan iborat. Bo‘limlarning har biri “kitab” deb yuritilgan. Yuqorida keltirilgan oziq-ovqat nomlari qadimgi turkiy tilning qay darajada shakllanganligi va qanday so‘zlar mavjud bo‘lganligining yaqqol misolidir. Qoshg‘ariy o‘z lug‘atida turkiy so‘zlarni hamda ularning ma’nosini izohlash uchun keltirilgan misollarini arab xatida bergan. Lekin o‘sha davr turklar qo‘llagan alifbo haqida ma’lumot berib uni boshqa bir yozuv-uyg‘ur xatini keltiradi. Uni “turkcha yozuv” deb ataydilar. Alisher Navoiy ham Husayn Boyqaroning o‘g‘li Shahzoda Badiuzzamonga yozgan maktubida uni “turkcha yozuv” deb ataydi.

Qoshg'ariy ta'kidlashicha uyg'ur alifbosida harflar soni o'n sakkiztani tashkil etgan. Muallif alifboda harflarning bosh shaklini ko'rsatib, tagida arab xatlari bilan ularning o'qilishini beradi [4]. Uyg'ur harflarining vazifasi tagidagi ana shu izohlarga qarab tushuniladi. Qoshg'ariy alifbosida harflar ketma-ketligi quyidagicha izohlangan: a,w,x,v,z,q,y,k,ḡ,m,n,s,b,ch,r,sh,t,l [4].

Olimning ta'kidlashicha, tilning tovush tizimi shuning bilan cheklanmaydi; turkiy tilda ishlatiladigan yettita tovush uyg'ur yozuvida mahsus belgiga ega emas. Bular p, z (sirr' aluvchi), g', g, ng hamda ch, wlardir. Ushbu tovushlar yuqorida ko'rsatilgan harflar vositasida ifoda etilgan yoki ular singari ifodalanib, qo'shimcha belgilar bilan farqlangan. Ushbu ma'lumotdan uyg'ur xatida quyidagi tovushlar bir xil ifoda etilganligi ayon bo'ladi: k-g, x-g', ch-j-z, w-f. Sonor ng esa ikki harf n+g bilan berilgan[4]. Asar haqida so'z yuritganda shu ta'kidlash kerakki asarning asl nusxasi saqlanib qolmagan va undagi ma'lumotlar Koshg'ariy zamonidan 200 yil o'tib, kitobni 1266-yilda ko'chirgan xattot Muhammad ibn Abubakr sharofati bilan bizgacha yetib kelgan. Oradan sakkiz asr o'tib 1904-yilda Vengriya Fanlar Akademiyasi tomonidan devon ilk bor nashr etilgan. Asar qo'lyozmasining 320 varaqli katta bir jildan iborat bo'lgan qismlarini Istanbulda Kilisli Rifat uch nusxada 1915-1917-yillarda, keyinchalik Besim Atalay tomonidan tarjima qilinib cho'p etilgan. Nemis sharqshunosi Carl Brockelmann "Devonu lug'otit turk" asarini 1928-yil nemis tiliga tarjima qildi. "Devonu lug'otit turk" asarinig turk tilidagi keyingi nashri 1957- yilda amalga oshirildi. "Devonu lug'otit turk" ikkinchi bo'lib o'zbek tiliga tarjima qilinib, muhim izoh va tafsirlar bilan 1960-1963-yillarda Toshkentda "Fan" nashriyotida 3 jildda chop etilgan[1]. Bu tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Ushbu nashr faqat tarjima bo'lmay, turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomalari, shahar va joy nomlariga izoh va tafsir hamdir. O'zbekcha nashrning muqaddima qismida XI arsning filologlari "Qutadg'u bilig" asarida va Mahmud Koshg'ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, bu urug' va qabilalar tilining shakllanishi hozirgi turkiy xalqlar va ularning tilga munosabati, tarjima transkripsiyasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. "Devonu lug'otit turk" o'zbekcha nashrining oxirida turkiy urug', qabila, shaharlar va boshqalar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan. O'zbekcha nashrining muhim tomonlaridan biri uning har bir jildi asosida tuzilgan ko'rsatkichdir. Sharqshunos olimlar N.Baskakaov Mahmud Koshg'ariyning "turkiy tillarni qiyoslash borasidagi yo'lchi yulduz", deb atagan bo'lsa, yana bir taniqli filolog-sharqshunos A.Samoylovich olimni "XI asrning Radlovi" deya e'tirof etgan.

Xulosa. Mahmud Koshg'ariyning tilshunoslikka doir faoliyati mukammal ma'lumotlar asoslamasada, turkiy filologiyaning tamadduni sifatida boshqa fan yo'nalishlarining muhim yodgorligi, ko'pchilik sharqshunos tadqiqotchilarining tadqiqot obyekti va topilmas tarixiy manbasi bo'lib xizmat qilgan va yangi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirgina qolmay, izlanishlarning aksariyati zamirida asarga tayanilayotganining

guvohi bo‘lamiz. Bu asar XI asrning noyob xazinasi hisoblanib, hozirgi kungacha o‘z qadrini yo‘qotgan emas. Asarda nafaqat turkiy so‘zlar lug‘at sifatida tuzilibgina qolmay, Mahmud Koshg‘ariy keltirgan xarita ham mavjud. Asarda qadimgi turklar hayotiga oid bir qancha maqollar, insonlar ijtimoiy hayotiga oid iboralar va so‘z birikmalari keltirilgan. Tilshunoslikka oid jihatlaridan yana biri fe‘llar va tovushlarga berilgan nisbatdir. Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarni ilmiy tasniflagan, eski turkiy shevalarni o‘rganib, turkiy tilning yirik, fundamental ilmiy grammatikasini yaratgan birinchi olimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. – Toshkent: NIF MSH, 2020.– 107.
2. Кайдаров А.Т. Этнолингвистика // Знание и труд. № 10, 1985. С. 274; Токенов О.С. Основы культурологии. – Алматы, 2001. С. 163.
3. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik– Toshkent O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – 154.
4. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017
5. Муталибов С. Тот // Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталибов. -Тошкент, 1961. Т.II. - Б.427.
6. Раҳманов В. Surxondaryo etnografizmlarining lingvomadaniy tadqiqi:
7. filol. f.f doktori (PhD) diss. – Termiz, 2024.B.132
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi – Toshkent:Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934